

## O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ASSOTSIATIV TAHLILNING SHAKLLANISHI

### FORMATION OF ASSOCIATIVE ANALYSIS IN THE UZBEK LANGUAGE

Shohruhbek Umidjonov,

Student of Kokand SPI (Uzbekistan)

#### **Annotation:**

This article examines the views on the formation of associative analysis in Uzbek linguistics, its methods, principles of analysis, taking into account the human factor

**Key words:** Uzbek language, human factor, associative analysis, associative field, associative connection

Bugungi kunda tilni o‘rganishga **inson omili** jihatidan yondashuv antropotsentrik tilshunoslikning qator yo‘nalishlari sirasida assotsiativ tilshunoslikning ham rivojlanishiga keng imkoniyat yaratildi. Assotsiativ tilshunoslikda assotsiatsiya, assotsiativ munosabat va assotsiativ maydon tushunchalari muhim o‘rin tutadi.

Assotsiatsiya tushunchasi zamirida til egasiing xotirasidagi predmet tasavvuri tushuniladi. Assotsiatsiyaning asosiy funksiyalari psixologiyadan o‘zlashtirilgan bo‘lib, uning psixofiziologik asosini bosh miyaning yarim pallasi qobig‘i qismlari orasidagi yo‘lning ochilishi va inson psixik harakatining murakkab shakllari negizi hisoblangan vaqtincha nerv aloqasining shakllanishi tashkil etadi. Assotsiativ aloqalar shartli ravishda reflektiv va dinamik ko‘rinishlarga ega bo‘ladi. Ayniqsa, assotsiatsiyalarning inson miyasidagi sub‘ektiv reaksiyasi individual, sub‘ektiv, o‘ziga xos bo‘lib, ular til egalarining mulkidir. Bundan anglash mumkinki, assotsiatsiya tushunchasiga insonning ixtiyoriy, ongli va beixtiyor, ongsiz qatlamlarining to‘qnashuvi, bir jarayondan ikkinchisiga o‘tish doirasida izoh berish mumkin. Assotsiativ munosabat va assotsiativ maydon tushunchasini anglab etish uchun hozirgi kungacha ilg‘or paradigma sanalgan struktur lingvistikaning funtsional-semantik maydon nazariyasini yaxshi bilish lozim.

Funksional-semantik tahlil yoki maydon tushunchasi tilshunoslikda bir necha nuqtai nazardan tavsif etilgan. Xususan, o‘zbek tilshunosligida so‘zning o‘z va funksional ma‘nosini H.Shamsiddinov so‘zning ma‘no muqobillari doirasida tadqiq etgan bo‘lsa, H.Ne‘matov funksional morfologiya talqinini, A.Nurmonov, N.Mahmudovlar sistem-funksional sintaksis tadqiqini, M.Qurbonova sodda gap, R.Sayfullaeva qo‘shma gap qurilishini formal-funksional aspektida tadqiq etishgan. L.L. Kisilev, M.Mirtojiyevlar esa funksional-semantik tahlilni so‘z semantikasi doirasida, A.Nurmonov, Sh.Iskandarova funksional-semantik maydon tushunchasini lingvistik tadqiqning ilg‘or metodi sifatida e‘tirof etdilar.

Assotsiativ maydon funksional-semantik maydondan farqli o‘laroq, semantik jarayonlardan tashqari, lisoniy tizimning barcha sathlarini qamrab oladi.

Ilmiy adabiyotlarda assotsiativ maydon assotsiativ tilshunoslikning tayanch tushunchalari sifatida e'tirof etiladi.

D.Lutfullayevaning qayd etishicha, assotsiativ maydonning lisoniy strukturasi leksikografik mohiyatga ega bo'lib, inson ongida aks etgan aniq voqelik, uning boshqa holatlari bilan birgalikdagi to'liq obrazli verbal ifodasini, u haqidagi tasavvurini, bilimlarini namoyish etuvchi lisoniy tizimning assotsiativ bog'langan semantik va grammatik munosabatdagi birliklari majmuasi sanaladi.

Tilshunoslikda assotsiativ maydon boshqa maydonlardan, jumladan, funktsional-semantik (mazmuniy) maydondan farq qiladi.

Prof. A.Nurmonov va Sh.Iskandarovalarning "Tilshunoslik nazariyasi" asarida qayd etilishicha, funktsional-semantik maydon atamasi nemis tilshunosligida turlicha atamalar bilan nomlanadi: "L.Vaysgerber" "til mazmunining ma'lum qismi", "tarkibining bo'lagi", I.Trir esa mazmuniy maydon sifatida "tushunchalar maydoni", G.Ipsen mazmuniy va grammatik jihatdan bog'langan so'zlar guruhini semantik maydon tarzida talqin etadi. A.Yolles esa uni "semantik birlashish", - deb nomlaydi".

Anglashiladiki, funktsional-semantik maydon va assotsiativ maydon tushunchalari alohida lisoniy hodisa, paradigma sanaladi. Chunonchi, funktsional-semantik maydon turli sathga mansub, geterogen birliklarning bir umumiy belgi asosida xotirada muayyan guruhlarga birlashuvidir.

Assotsiativ maydon esa bir-biri bilan assotsiativ bog'langan (bir-birini yodga tushiruvchi) til birliklarining yig'indisi bo'lib, bir sathga yoki turli sathga oid birliklar munosabatidan tashkil topadi. D.Lutfullayeva, assotsiativ maydon tushunchasini izohlar ekan, mazkur maydonga o'zaro semantik bog'langan birliklar bilan birga, semantik jihatdan bog'lanmagan, til egalari ruhiyati, dunyoqarashi, qiziqishlari, olam haqidagi bilimlari bilan bog'liq holda xotirasida tiklangan birliklar ham birlashishini ta'kidlaydi.

Assotsiativ maydon chegaralanmagan, uning tarkibiga leksik birliklar bilan birga, sintaktik birliklar ham kirib qolishi mumkin. Masalan, «odam» assotsiativ maydoni tarkibiga «U ongli mavjudot» gapi assotsiativ sifatida kirishi mumkin. Ammo leksik birlikning mazmuniy maydonida bu kabi birliklar ishtirok etmaydi.

N.Xoshimovaning fikricha, assotsiativ maydon ko'lamida individual va tasodifiy assotsiatsiyalar yuzaga chiqishi mumkin. Tadqiqotchi individuallik va tasodifiylik holatlarini mazmuniy maydonda komponent, ya'ni semantik tahlil bilan almashtirilishi, assotsiativ maydonning esa struktural tabiati shaxsga bog'liq ekanligini rassom va soqol leksemalari misolida asoslaydi. Biz ham mazkur fikrni e'tirof etamiz. Masalan, "odam" assotsiativ maydoni tarkibiga "naynov", "mirzaterak", "yog'och oyoq" kabilar assotsiativ bo'lishi mumkin. Chunki ba'zi odamlar haddan ziyod novcha yoki oriq yohud oyoq-qo'llari uzun bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, o'zbek tilshunosligida lisoniy birliklarning assotsiativ aloqasi, tilda verbal assotsiativ jarayonlarning hosil bo'lishi muammosi A.Nurmonov, D.Lutfullayeva,

D.Xudoyberganova, Sh.Iskandarova, I.Azimova, N.Hoshimova kabilarning ishlarida jiddiy munosabat bildirib o'tilgan. Bu xususda prof. D.Lutfullayeva o'zining monografik ishida batafsil sharhlagani bois, biz ishda qayta izohlashni o'rinsiz, deb bildik.

M.Ermalovning qayd etishicha, assotsiativ munosabat bir yoki bir necha sath birliklarining turli vositalari orqali til egalari xotirasida assotsiativ bog'lanishni aks ettirishi tushuniladi.

Yuqoridagi nazariy fikrlarga tayanib, o'zbek tilshunosligida assotsiativ tahlilning shakllanishida professor D.Lutfullayeva va dotsent U.Yigitaliyevlarning monografik tadqiqotlari fundamental mavqega ega, deb ayta olamiz.

### References:

1.Umidjon Yigitaliyev. O'zbek tilida konseptning assotsiativ-verbal tadqiqi (Monografiya). – Toshkent: “Lesson press”, 2023. – 130 b.

2. Umidjon Yigitaliyev. The transposition of the concept of "man" in the uzbek language in the semantics of verb tense forms. ASEAN Journal on Science & Technology for Development Vol 39, No 4, 2022, 423-431 423.

3. Umidjon Yigitaliyev, Shohrubbek Umidjanov. THE ROLE OF THE CONCEPT "MAN" IN THE FUNCTIONAL-SEMANTIC AND ASSOCIATIVE-VERB EXPRESSION OF THE FORMS OF THE CATEGORY OF CASES (on the example of Uzbek-language sources) // Journal for Educators, Teachers and Trainers, Vol. 14 (5) 18-22 / DOI: 10.47750/jett.2023.14.05.004

4. Umidjon Yigitaliyev, Shohrubbek Umidjanov (2023). The Role Of The Concept "Man" In The Functional-Semantic And Associative-Verb Expression Of The Forms Of The Category Of Cases. Journal for Educators, Teachers and Trainers, Vol. 14(5). 18-22

5.Umidjon Yigitaliyev. Gapning kommunikativ qurilish jarayonida “shaxs” tushunchasining deyxitik ifodalanishi// – Toshkent, 2020. Jurnal: O'zbek tili va adabiyoti, 5-son. –B. 99-103.

6. Lutfullayeva D. Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: MERIYUS, 2017. – 140 b.

<https://jett.labosfor.com/index.php/jett/article/view/1997>

<https://scienceweb.uz/publication/11972>

<https://docplayer.ru/27467248-Russkiy-associativnyy-slovar.html>;

<https://www.oarepo.org/index.php/oa/article/download/1428/1420>

<https://www.oarepo.org/index.php/oa/article/view/1320>

<https://scienceweb.uz/publication/12062>